

**O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA RAQAMLI
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MILLIY QADRIYATLAR
INTEGRATSIYASINING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Abdisheripova Shaydo Bahtiyor qizi,

*University of Business and Science (UBS) ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrası o‘qituvchisi
abdisheripovash@gmail.com*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ta’lim sifatini ta’minlashda raqamli pedagogik texnologiyalar va milliy qadriyatlar integratsiyasining pedagogik asoslari tahlil etiladi. Ularning uyg‘unligi o‘quvchilarning bilim va ma’naviy rivojiga ta’siri yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli ta’lim, pedagogik texnologiya, milliy qadriyatlar, integratsiya, ta’lim sifati.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются педагогические основы интеграции цифровых педагогических технологий и национальных ценностей в обеспечении качества образования. Освещается влияние их гармоничного сочетания на интеллектуальное и духовное развитие обучающихся.*

***Ключевые слова:** цифровое образование, педагогические технологии, национальные ценности, интеграция, качество образования.*

***Abstract.** This article analyzes the pedagogical foundations of integrating digital pedagogical technologies and national values in ensuring the quality of education. It highlights the impact of their harmonious combination on students' intellectual and spiritual development.*

***Keywords:** digital education, pedagogical technologies, national values, integration, quality of education.*

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ta’lim tizimiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi ta’lim mazmuni, shakli va metodlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda ta’lim sifati faqat bilim berish bilan emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijtimoiy va ma’naviy kompetensiyalarini shakllantirish bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, xususan, Prezidentning PF-5847-son Farmoni hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [1], [2]. Bu esa ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va tarbiyaviy mazmunning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab hollarda raqamli texnologiyalar orqali bilim berish jarayoni ustunlik qiladi, ammo qadriyatlarga asoslangan tarbiya yetarlicha integratsiya qilinmaydi. Natijada ta’limning mazmuniy yaxlitligi buziladi. Shu sababli pedagogik texnologiyalar va milliy qadriyatlar integratsiyasi ta’lim sifatini ta’minlashning muhim pedagogik sharti sifatida qaralishi lozim.

Muhokama va natijalar. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligini ta’minlovchi omil sifatida qaraladi va bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda ta’lim

berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini maqsadga yo’naltirilgan, tizimli va natijaga asoslangan holda tashkil etish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o’quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni chuqur o’zlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Insert”, “Case-study” kabi metodlar o’quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi. Biroq ushbu metodlar mazmun jihatidan boyitilmasa, ular faqat texnik vosita sifatida qolib ketadi. Shu sababli pedagogik texnologiyalarni samarali qo’llash uchun ularni ma’naviy-axloqiy mazmun bilan boyitish zarur. Bu esa o’z navbatida milliy qadriyatlar bilan bog’lanadi va shu bilan birga hozirgi zamon talabi hisoblanmish raqamli texnologiyalar orqali ushbu mazmunni kengaytirish imkonini yaratadi. Raqamli pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv, vizual va moslashuvchan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Ular orqali o’quvchilar turli axborot manbalaridan foydalanish, mustaqil izlanish olib borish va bilimlarni chuqurroq o’zlashtirish imkoniga ega bo’ladi. Masalan. tarix fanida videodarslar orqali tarixiy voqealarni jonli tasvirlash, adabiyot darsida elektron platformalarda matnlarni tahlil qilish, boshlang’ich ta’limda animatsion materiallar orqali tushunchalarni osonlashtirish. Biroq raqamli texnologiyalarni qo’llash jarayonida tarbiyaviy jihat e’tibordan chetda qolsa, ta’lim biryoqlama rivojlanadi. Shu bois raqamli pedagogik texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg’unlashtirish zarurati yanada ortadi. Bu esa bizni ta’lim mazmunining eng muhim qismi – milliy qadriyatlarning mohiyatini chuqurroq tahlil qilishga olib keladi.

Milliy qadriyatlar – ta’lim mazmunining ma’naviy asosi. Milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, urf-odatlar, an’analari va axloqiy me’yorlarini o’zida mujassam etgan ijtimoiy hodisadir. Ular shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda muhim o’rin tutadi. O’zbek xalqining milliy qadriyatlariga quyidagilar kiradi. kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, vatanparvarlik va fidoyilik, oila muqaddasligi, mehnatsevarlik va halollik, mehr-oqibat va hamjihatlik. Mazkur qadriyatlar asrlar davomida shakllangan bo’lib, ular yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash – ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir [6]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta’lim jarayonida qadriyatlarni berish faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanmasligi, balki ularni amaliy faoliyat orqali o’quvchilar ongiga singdirish zarur.

Xulosa. Milliy qadriyatlarni samarali shakllantirish pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirilgandagina natijador bo’ladi. Chunki zamonaviy o’quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi hisoblanadi. Quyidagi yondashuvlar bunga yaqqol misol bo’la oladi. Rol o’ynash metodi. “Oila”, “Mahalla”, “Ustoz-shogird” kabi

mavzularda sahnalashtirish orqali o‘quvchilar qadriyatlarini his etadi va amalda o‘zlashtiradi.

Case-study metodi. real hayotiy vaziyatlar asosida muammolarni hal qilish orqali o‘quvchilarda axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllanadi. Loyihaviy metod. “Mening oilam qadriyatlari”, “Milliy an‘analarimiz” kabi loyihalar orqali o‘quvchilar mustaqil izlanadi. Raqamli vositalar. videoroliklar, taqdimotlar va interaktiv platformalar orqali qadriyatlar vizual va hissiy shaklda yetkaziladi. Masalan, boshlang‘ich sinfda “kattalarga hurmat” mavzusi oddiy tushuntirish orqali emas, balki sahnalashtirish va videoroliklar yordamida berilsa, u o‘quvchining ongida mustahkam o‘rnashadi. Shunday qilib, pedagogik texnologiyalar qadriyatlarini o‘quvchiga yetkazishning samarali vositasiga aylanadi. Bu jarayonda psixologik omillar – qiziqish, motivatsiya va emotsional ta‘sir – muhim rol o‘ynaydi va integratsiyaning ichki mexanizmini ta‘minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim sifatini ta‘minlash zamonaviy sharoitda kompleks yondashuvni talab etadi. Raqamli pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonining tashkiliy va texnologik asosini belgilasa, milliy qadriyatlar uning ma‘naviy mazmunini boyitadi. Ushbu ikki omilning uyg‘unligi esa ta‘lim samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ayniqsa, raqamli ta‘lim muhitida o‘quvchilarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, ularning ma‘naviy dunyosini boyitish, ijtimoiy mas‘uliyatini shakllantirish va milliy o‘zligini anglashiga ko‘maklashish muhimdir. Bu esa pedagogik texnologiyalarni qadriyatlarga yo‘naltirilgan holda qo‘llashni taqozo etadi. Shu bilan birga, pedagogik texnologiyalar va qadriyatlar integratsiyasi o‘quvchilarda quyidagi sifatlarni rivojlantiradi. mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faoliyatga tayyorgarlik, ma‘naviy-axloqiy yetuklik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat. Natijada ta‘lim jarayoni nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi tizimga aylanadi. Shu bois ta‘lim tizimida raqamli pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, ularni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish strategik ahamiyatga ega pedagogik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5847-son Farmoni, 2019.
2. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2020.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar.
4. Ishmuhamedov R. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari.
5. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya.
6. Mirziyoyev Sh.M. Nutqlari.